

ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA MILLIY QADRIYATLAR AKS ETTIRILGAN UNSURLAR VA TASVIRIY VOSITALAR

Zaripova Muxlisa Xamid qizi

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Turkiy tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
3-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi motiv tushunchasi va tasviri, badiiy tasvir vositalari, xalq og'zaki ijodining namunalari.*

Kalit so'zlar. *Folklor, badiiyat, “Farhod va Shirin”, tush, motiv, xalq og'zaki ijodi.*

Tabiiy qonuniyatga asoslanadigan narsa va hodisalar haqida tushuncha va tasavvurga egamiz. Deyarli hayot tarzimiz ham tabiiy qonuniyatdek tuyuladi goho. Tafakkur qilinsa, kitoblar, asarlar, yozma manbalar ham asli tabiiy qonuniyatning tuhfasidek bo'lishga ulgurgan, sababi bularning barchasi o'z o'rniga va o'z ixlosmandlariga egadir. Mana shu kabi adabiyot ham hayotimizning mazmunini bo'lagidir. Adabiyot olamida o'z o'rniga ega bo'lganlar bisyor. Bular kitoblar bo'lsin, hoh ular yaratgan noyob namunalaridan tortib, oddiy ko'ngil satrlari ham adabiyotning negizi, yuragi bo'lib hisoblanadi va qadrlanadi.

Adabiyot olami haqida gap ketganda uzluksiz, soatlab gapirish mumkin. Shu bilan birga adabiyot ruhiyatning tarbiyachisi sifatida, insonlarning ko'ngil mulki hisoblangan ma'naviyatining shakllanishida ijtimoiy, amaliy muhim ahamiyatga egaligi bilan e'tirof etiladi. Ayniqsa hozirgi texnologiyalar taraqqiy etgan asrda adabiyotga, badiiy asarlarni o'qishga bo'lgan ehtiyojimiz ikki baravarga ortdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ildiz otib borayotgan ba'zi bir hurujlar tufayli insoniyat olamida, jamiyatda, ijtimoiy munosabatlarda ko'p narsalar qalashib, ma'naviyat va ma'rifat yuksalishiga sezilarli ta'sir qilmoqda. Demak, bu kabi omillarning oldini olishning birdan bir yo'li-ma'naviyat va ruhiyat tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish. Yoshlarni nafaqat yoshlar, balki butun jamiyat, jamoani komil inson bo'lishga da'vat etish va adabiyotga muhabbat qo'yishida alohida chora-tadbirlarni takomillashtirish lozim deb o'ylayman. Zeroki, bugun biz vaqtimizni be'mani, bo'lmag'ur narsalarga sarflashdan tonmas ekanmiz, millat ertasining Navoiylari chiqmasligi muqarrardir.

Bejizga Cho'lpon: "Adabiyot yashasa millat yashaydi"-deya yonib kuymadi. "Adabiyot nadur?" maqolasida ruhiyatni tarbiyalash adabiyotdan boshlanishini chiroyli yoritib bergan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari» mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga quyidagicha tabrik yo'llagan edilar:

"Bu muhim yo'nalishda biz sizlar bilan har tomonlama samarali hamkorlik qilishga doimo tayyormiz. Jumladan, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshida sizlarning ishtirokingizda O'zbek adabiyotining xorijiy do'stlari kengashini tuzish va uning faoliyatini tizimli asosda tashkil etish bu yo'ldagi dastlabki amaliy qadam bo'lishi mumkin".

Darhaqiqat, mana necha asrlarki Navoiy, Bobur kabi ulug' ulamolar ijodi dunyo kezib yursa-yu, biz yoshlar, ularning ijodini, komil inson g'oyalari haqida bilmasak...

Dunyo hamjamiyatida Alisher Navoiydek buyuk bobomiz haqida gap ketar ekan, uning bizga qoldirgan ma'naviy merosi bugunga qadar o'z ixlosmandlari e'tiboriga molikdir. Bu ijodkorning har bir asarlarini o'rganar ekanmiz, har gal yangi jihatlarini aniqlaymiz va adabiyotimizga, hayotimizga tatbiq qilsak-da, o'rganilmagan, e'tibordan chetda qolgan qismi topilaveradi. Bularni o'rganish, yoritish va ertangi kelajak avlodlarga yetkazish bizning burchimiz va qarzimizdir. Alisher Navoiy 1441-yilda Hirotida tug'ildi. Uning otasi G'iyosiddin kichkina va bir necha qarindoshlari temuriylar saroyiga yaqin turgan amaldor aristokrat, buvilari esa Temuriy shahzodalarning enagalari bo'lgan.

Buyuk davlat arbobi Alisher Navoiy ijodi o'zbek tilining adabiy tilda mustahkamlanishiga ulkan hissa qo'shdi. Bu asarlar xalqning ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini ulug'laydi. Navoiyning Xamsa asari o'zbek adabiyotining ilk va eng mukammal beshlik dostonlar to'plamidir. Bu asar orqali Navoiy turkiy tilda katta epik asar yaratish mumkinligini isbotlab, o'zbek adabiyotini yangi bosqichga olib chiqdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich o'zining **"Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik"** asarida Alisher Navoiy ijodiga quyidagicha fikrlarni aytib o'tgan:

"Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida Alisher Navoiy singari ulkan daholarning insonparvarlik, ezgulik va mehr-muruvvat, do'stlik va qardoshlik, sevgi va sadoqat singari sof insoniy tuyg'ular, bag'rikenglik va oliyjanoblik, halollik va

mehnatsevarlik fazilatlarini, bunyodkorlik g'oyalari ulug'langan bezavol asarlari har qachongidan muhim ahamiyat kasb etayotgani hammamizga yaxshi ayon".⁹

Endi tug'ilgan farzandga ism tanlash va ism qo'yish bizning xalqimizga xos urf-odatlar sirasiga kiradi. Ism hayotni belgilashi haqida xalq orasida ko'plab badiiy to'qimalarni eshitganmiz. Shunday qilib asarda bolani beshikka belash, alla aytib uxlatish kabi xalqning milliy ruhini ifodalovchi motivlari yoritilgan. Bular ham badiiy folklor san'ati namunalarini mujassam etganligi va badiiy ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qilganining guvahi bo'lamiz.. Sababi xalq tarixida har bir urf-odatlar o'z o'rniga ega va badiiy jihatidan katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunga qadar bolaning tug'ilishi va unga ism qo'yish, beshik marosimlari xalq turmush tarzining ajralmas qismiga aylangan. Farhod dard bilan tug'iladi, uning dardi ishq dardi deyiladi. Asar bir qarashda sevgi afsonasiga qiyos qilinsa ham, aslida bunda Navoiy komil inson g'oyasi orqali, ishq, chin oshiqlik va ollohga bo'lgan muhabbat va podshoning oddiy bir qizga bo'lgan munosabatlarini xolisona yoritishga xarakat qiladi. Shu o'rinda buning isboti tariqasida quyidagi parchani keltirib o'taman:

Dedi: Nedur senga olamda pesha?

Dedi: ishq ichra majnunlik hamesha...

Dedi: ishqig'a ko'nglung o'rundur?

Dedi: ko'nglumda jondek yashirundur...

Dedi: ko'nglung fido qilsa jafosi?

Dedi: jonimni ham aylay fidosi...

Dedi: u ishdin inkor qilg'il!

Dedi: bu so'zdin istig'for qiling!..

Dedikim: shahg'a bo'lma shirkat andesh!

*Dedi: ishq ichra tengdur shohu darvesh!..*¹⁰

Yuqorida qayd etilgan parchani xalq tilidagi aytishuv motivlariga o'xshatish mumkin. Bu usul ham omma o'rtasida o'tkazilgan tadbirlarda keng ko'lamli o'z ixlosmandlariga egadir.

Qirq kechayu qirq kunduz, yetti, o'n to'rt, uch va shu kabi ko'plab xalq hayotida ko'zga tashlandigan e'tibordan chetda qolmaydigan raqam motivlarining asarda o'rinli qo'llanishi ham uning mazmunini ham badiiy ifoda jihatini yanada boyitishga xizmat qilgan. Xalq tilida ham raqamlar juda ko'p irim-sirimlarni, urf-odatlarni

9. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik Ozbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, 2016.

10. A.Navoiy. Farhod va Shirin (nazm). Toshkent, 1979.

belgilabgina qolmasdan, insonlarning hatto omadlarini belgilashi haqida ham bir necha qarashlar mavjud. Ya'ni insonning tug'ilishi va kelajagi haqida rivoyat va afsonalardan qorishtirish usulidan foydalanilganini ko'ramiz. Masalan, Farhod ariq qazish vaqtida kuchining ko'pligi va oz muddatda bajarish qobiliyatiga egaligi ham badiiy folklor deb aytsak mubolag'a bo'lmaydi, bunday kuchga ega bo'lish va shu kabi sahnalarini xalq dostonlarida ham uchratamiz. Bo'rttirish orqali badiiylik yarata olgan. Afsona va miflardan foydalanish asarning mohiyatini ochib berishga xizmat qilgan. Obrazlarda, so'z qo'llashda, maqollar ishlatishda, badiiy usulining ayriqchaligi bilan Navoiy falsafasi adabiyotimizda alohida ahamiyat kasb etadi. "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" dostonlari badiiyatning ham yuksak namunasi sanalib, shoir iqtidorining benazir ko'zgusi deyish mimikin. Ana shu ko'zguda yuksak mahorat bilan aks ettirilgan tush lavhalarining go'zal tasvirlariga ham duch kelamiz. Ma'lumki, xalq og'zaki ijodi asarlari bo'lsin, yozma adabiyot bo'lsin, asar qahramonlari taqdirida tush muhim o'rin tutadi. Mumtoz adabiyot namunalarda bu epizodni ko'p uchratamiz.

Tush nima? Uning qanday ilmiy asoslari bor? Bu savollarga javob turlicha. Shu o'rinda "tush" tushunchasining izohi xususida. Folklorshunos Jabbor Eshonqul folklordagi tush lavhalari xususida tadqiqot olib borar ekan, bu haqda quyidagilarni bayon etadi: *Ushbu tushuncha "o'z" va "o'zga olam", ya'ni xalqona "chin dunyo" va "yolg'on dunyo" deb ataluvchi dunyoqarash bilan bog'liq. Aslida bunday tushuncha va tasavvurlar dunyoning aksariyat xalqlari mifologiyasi, dinlarida ham mavjud bo'lib, mifologik, diniy, falsafiy adabiy manbalarda ko'plab talqinlarga ega. Ushbu dunyoqarash va tushunchalarga ko'ra biz yashayotgan voqelik aslida "yolg'on dunyo" bo'lib, o'zga olam-chin dunyoning soylari deb qaraladi. Inson uxlab, uning ruhi ravoni chin dunyoga borishi yondosh (parallel) olamlarga o'tishi mumkin deb tushuntiriladi. Ruhi ravonning chin dunyoga vaqtinchalik sayohati davrida ko'rgan- bilganlari tush deb qaraladi". Badiiy asarlarda tush lavhalarining alohida o'rni va "vazifasi" bor. Masalan, xalq og'zaki ijodida, bevosita tush asosiga qurilgan "Musofirbek", "Sirli tush", "Xon bilan kambagbal dehqon", "Ibratli tush" kabi ertaklar bor". Tushdagi timsollarning yechimini aniqlash ham muhim, bu masala ta'bimomalarda o'z izohini topadi. Ana shunday ta'bimomalar sirasiga "Irq bitigi", "Ta'birnomai Yusuf alayhissalom" kabi asarlarni ham kiritish mumkin.*

Hazrat Navoiy qalamiga mansub "Farhod va Shirin" dostonidagi tush lavhalarini ko'rib chiqar ekanmiz, shoir iste'dodiga ming bora tan bermasdan iloj yo'q. Zero, benazir qalb sohibi, xalqimizning buyuk farzandi ushbu asarlarida ham so'z san'atining, badiiyatning yuksak qudratini yana bir bora isbotlab berdi. Alisher Navoiy dostonlari badiiy jihatdan nihoyatda yuksak. Har bir bayt, har bir satrda olam-

olam ma'no mujassam. Navoiy hikoyalarida asosiy diqqat inson obrazini yaratishga qaratilganligini, ana shu insonning ma'naviy qiyofasi va ichki ilohiy kechinmalarini mohirlik bilan ochishda shoir badiiylkdagi hamma vositalardan mohirlik bilan foydalangan. Binobarin mazkur asarning kashf etilmagan qirralari talaygina. Asar sevgi kurashi tasviri sifatida maydonga chiqadi, uni adib "*shavq dostoni*" deb ataydi. Asarda ot katta ahamiyat kasb etishi ham xalq dostonlaridagi kabi ko'plab badiiy unsurlarini sahnaga olib chiqadi. Bundan tashqari yana dardli sahnalarini bo'rttirish orqali tasvirlanishi, masalan Farhodning Shirinni ko'rishi jarayonida qayta-qayta hushidan ketishi aytilishi, bu bir toifa kishilarning qarshiligiga uchrasa ham bu sahna ham mohirona foydalangan xalq og'zaki ijodi motivlaridandir. Shoir tasviriy o'rinlarda badiiy tasavvurni ishga soladi, xalq og'zaki ijodidagi tasviriy usullardan ilhom oladi. Masalan, Farhodning ajdarga qarshi kurashi, Axramanni yengishi, Iskandar tilsimini ochishi, dengizda qaroqchilarga qarshi kurashi va boshqa epizodlar badiiy tasvir jihatidan xalq ertaklari va afsonalariga juda o'xshab ketadi.

Xullas bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni ham hazaji musaddasi mahzuf(mafoilun, mafoilun faiuylun)vaznida yozilgan. Navoiy ijodining o'ziga xosligi, u mumkin bo'lmagan narsalarni xuddiki ko'z o'ngimizda sodir bo'layotgandek qilib tasvirlab beradi. Masalan Shirinning timsolini ta'riflashda uni pariga, otini esa devga qiyoslaydi. Yana qasrlarning qurilishi tasvirini ham alohida ta'kidlash joiz bo'lgan noan'anaviy usullar vositasida ta'riflaydi va bu kitobxon ko'z o'ngida juda chiroyli gavdalanadi. Navoiy ijodini bir qator olimlar o'rganadi, yangi jihatlarini aniqlashgan, ochilmagan qirralarini kashf qilishgan va bugungi kunga qadar kashf qilishga harakat qilmoqdalar. Navoiy ijodi haqida yana shunday fikrlar ham aytiladi, muqaddas "Qur'oni Karim" ilmini o'zida mujassamlashtirgan deyiladi. Bu bejiz emasdir, sababi beshlikda ham boshlanishida ollohga hamd va payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhissalomga na't bilan yozilishi, va ollohga bo'lgan muhabbat borligini, chin oshiqlik olloh visoliga yetishga qaratilgani haqida ma'lumotlar beriladi.

O'zbek adabiyotida badiiy ifodadan foydalanish muhim ahamiyatga ega, chunki asar tili va asar qurilishi hamda kitobxonlarga manzur bo'lishi uchun ham yozuvchi badiiy ifodalardan unumli foydalanishadi. Ayniqsa, doston yaratishda iste'dodli ijodkor xalq og'zaki ijodi namunalaridan albatta samarali foydalanadi. Masalan, Navoiy "Xamsa"sining bosh dostonlaridan biri bo'lgan "Farhod va Shirin" dostonida nasriy bayonida: "*Agar tuproq olsang, oltin bo'lsin, bir qatra ter to'ksang har qatra tering, qimmatbaho durga aylansin*". -deyiladi.¹¹ Bu xalq tilidan olingan maqolning

11 A.Navoiy. Farhod va Shirin (nasriy bayoni). Toshkent,1979.

asar mazmuniga mos tarzda yozilishi ham dostonning mazmunini ochishda nihoyatda boy manba bo'la oladi. Badiiy tasvir vositalaridan foydalanishda ijodkorlar ma'lum maqsadni ko'zlab qo'llaydi. Bunda bir necha sabablari bor, misol uchun sevgi kurashini yoritishda Navoiy qahramon oldiga bir nechta to'siqlarni qo'yishi va ularni yengib o'tish sahnasida, shu davrning muhitini yaratish uchun Farhodning botmon kuchga ega inson sifatida gavdalanishi ham bejiz emasdir. Uning oldiga Xusrav shoh va uning johil o'g'li bo'lgan Sheruya qarama-qarshi raqib bo'lib tasvirlanadi. Bu obrazlar ham o'ziga xos vazifani bajarishda muvaffaqiyatli ishtirok etadi. Xusrav yomonliklari o'z o'limiga sabab bo'lishi va uning o'z o'g'li tarafidan o'limga hukm qilinishi ham, o'zidan chiqqan baloning, boshiga ofat keltirishini badiiy tasvirlab bergan.

Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida xalq og'zaki ijodining motivlari o'ta ta'sirchan va samarali tarzda aks ettirilgan. Bu doston, bir tomondan, Sharq adabiyoti an'analari bilan uyg'unlashgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, xalq og'zaki ijodi motivlarini o'z ichiga singdirib, ularga yangi badiiy va falsafiy mazmun yuklagan. Dostondagi ertaklarga xos qahramonlarning jasorati, sevgi-muhabbat, mehr-oqibat va adolat g'oyalari xalq og'zaki ijodining asosiy motivlariga bog'langan. Farhodning ideal qahramon sifatida tasvirlanishi va Shiringa bo'lgan cheksiz muhabbati xalq og'zaki ijodida uchraydigan o'lmas sevgi dostonlarini eslatadi. Shuningdek, asarda xalq maqollari, afsonalari va qadimiy rivoyatlarning ta'siri yaqqol seziladi. Bu esa asarni xalq hayotiga yaqinlashtiradi va keng ommaning e'tirofiga sazovor qiladi. Shu bilan birga, Navoiyning badiiy iste'dodi xalq og'zaki ijodi motivlarini o'ziga xos ravishda o'zgartirib, ularga falsafiy, ma'rifiy va didaktik xususiyat berganini ko'rish mumkin. Masalan, dostonning asosiy voqealari orqali insoniy barkamollik, ma'naviy poklik va adolat tamoyillari kuylangan. Umuman olganda, "Farhod va Shirin" dostoni xalq og'zaki ijodining boy merosi bilan Navoiyning yuksak badiiy mahoratining sintezidan yaratilgan asar sifatida qadrlanadi. U faqat badiiy qiymatga ega bo'lib qolmay, xalq hayoti, qadriyatlari va dunyoqarashini ifodalashda ham muhim manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1999.
2. Hojiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi? – T.: Sharq, 2001.
3. Komilov N. Tasavvuf. Tavhid asrori.2-kitob. –T.: Movarounnahr–O'zbekiston, 2010.
4. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. –T.: O'qituvchi nashriyoti, 1976.
5. Navoiy. Farhod va Shirin (nasriy bayoni) –T: G'afur g'ulom nomidagi nashriyot uyi, 1979.
6. Navoiy. Farhod va Shirin (nazm) –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot uyi, 1979.
7. Quranov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Navoiy universiteti, 2018.
8. Qayumov A. Alisher Navoiy. –T.: G'afur G'ulom, 2002.
9. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
10. Sirojiddinov Sh, Yusupova D, Davlatov O. Navoiyshunoslik. –T.: Akademiknashr, 2020.
11. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –T.: O'zbekiston, 1979.